


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**RELATIONS OF THE SAFAVID STATE WITH EUROPE****Mukhabbat Khabibova**

senior lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Abdubilal Abdurakhmanov

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Abbaskhan Ubaydullaev

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Portugal, Hormuz, Pope, King Ismail, Tahmasp I, Abbas I, British, Dutch, silk products, neutrality, mission.

Received: 28.05.23**Accepted:** 30.05.23**Published:** 01.06.23

Abstract: This article analyzes the factors that led to the beginning of relations between the Safavid state and Europe, the processes of leaving these relations, the achievements of the royal government in diplomatic relations, as well as its consequences and what factors led to the failure of embassy missions.

SAFAVIYLAR DAVLATINING YEVROPA BILAN ALOQALARI**Muhabbat Xabibova**

katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Abdubilol Abduraxmonov

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Abbosxon Ubaydullayev

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Portugaliya, Hurmuz, Papa, Shoh Ismoil, Tahmasp I, Abbos I, inglizlar, gollandlar, ipak mahsulotlari, betaraflik, missiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Safaviylar davlatining Yevropa bilan aloqalarining boshlanishiga turtki boʻlgan omillar, mazkur aloqalarning ketish jarayonlari, diplomatik munosabatlardan shoh hukumatining erishgan yutuqlari, shuningdek, buning oqibatlari va qanday faktorlar elchilik missiyalarining muvaffaqiyatsiz chiqishiga olib kelganligi tahlil qilindi

ОТНОШЕНИЯ СЕФАВИДСКОГО ГОСУДАРСТВА С ЕВРОПОЙ

Мухаббат Хабибова

старший преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Абдубилал Абдурахманов

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Аббасхан Убайдуллаев

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Португалия, Ормуз, Папа Римский, король Исмаил, Тахмасп I, Аббас I, англичане, голландцы, шелковые изделия, нейтралитет, миссия.

Аннотация: В данной статье проанализированы факторы, обусловившие начало отношений Сефевидского государства с Европой, процессы ухода из этих отношений, достижения королевского правительства в дипломатических отношениях, а также его последствия и какие факторы привели к провалу посольских миссий.

KIRISH

Safaviylar sulolasi oʻz hukmronligi davrida (1501-1736-yillar) oʻz siyosiy hukmronligini va geosiyosiy mavqeyini saqlab qolish uchun, shuningdek, boshqa hukumatlarning ularning ichki ishlariga aralashishiga yoʻl qoʻymaslik, milliy shu davrning buyuk davlatlari bilan oʻzlikni himoya qilish uchun muloqot qilishga majbur boʻldi. Darhaqiqat, tashqi siyosatning diplomatik, harbiy va iqtisodiy vositalaridan foydalanib Safaviylar uchun sunniy hukumatlar (Usmoniylar, Oʻzbeklar va Boburiylar) bilan raqobatda oʻz saltanatining siyosiy-diniy tuzilishini saqlab qolishga muvaffaq boʻldilar hamda yevropa davlatlari bilan aloqalar natijasida mamlakatni tashqi olamga ochdilar. Ushbu maqolada mualliflar ikta savolga javob topishga harakat qildilar, birinchisi, diplomalik

aloqalar natijasida safaviylar mamlakat uchun qanday foyda keltirdilar?, ikkinchisi, Yevropa mamlakatlari bilan aloqalar rivojlanishi va to'xtashiga qanday unsurlar sabab bo'ldi? Safaviylar Eroning ichki va tashqi siyosatiga oid ko'plab izlanishlar olib borilgan, ulardan Endryu Nyumanning 'Safaviylar Eroni: Fors imperiyasining qayta tug'ilishi' kitobi Safaviylar imperiyasi davridagi siyosiy, diniy va madaniy o'zgarishlarga birlamchi manbalarga asoslanib yangicha taklif va xulosalar bergan eng so'nggi tadqiqot natijalaridan. Ushbu asarda muallif har bir shoh uchun bir bo'lim ajratib, ularning faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olishga harakat qiladi. Kitobni to'liq universal manba sifatida qabul qilsa bo'ladi. Muallif Kolin P. Mitchell Eron tarixiga ixtisoslashgan tarixchi bo'lib, "Safaviylar Eronida siyosat amaliyoti" asari Safaviylar siyosiy madaniyatini har tomonlama va chuqur tahlil qiladi va bunda hokimiyatni qo'llash hamda saqlab qolish usullariga e'tibor qaratadi. Kitob qamrab olgan davr 1501-1576-yillarni qamrab olgani uchun shu vaqt oralig'idagi voqealarga e'tibor qaratgan tadqiqot uchun bosh manba bo'la oladi. Shuningdek, Safaviylarning Yevropa bilan aloqalarini chuqur o'rgangan Rudi Matthee, Mohammad Ali Chalongar, Zahra Sadat Keshovar, Ahmad Guliyev, Colin P. Mitchell kabi olimlarning faoliyati diqqatga sazovor.

ASOSIY QISM

XVII asrgacha yevropaliklar Eron haqida ma'lumotga ega bo'lishmagan. Islom sabab O'rta asr rohiblari musulmonlar bosib olgan yerlarga e'tibor qaratmagan, ularning diqqat markazi va bahslari Qur'onga qarshi yo'naltirilganligi uchun arablarga va arab tilini o'rganishga e'tibor qaratganlar. 1500-yilgacha nasroniy ziyoratchilar yetib borgan joylar ham asosan Levant, Falastin, Sharqiy Onado'lu, Mesopotamiya, Zogros tog'lari bo'lib, hatto 1270-yillarda Eron orqali Xitoyga brogan Morko Polo kundaliklari ham Eronga bo'lgan qiziqish uyg'otmagan [4:8]. Xristianlar dastlab musulmonlarga qarshi mo'g'ullar bilan ittifoqchilik qilishga harakat qilishdi, XIV asrda ular turklar tomonidan surib chiqarilgach Usmonlilarga qarshi kuch sifida Eron Yevropa nazariga tushdi. 1501-yilda Eronda Safaviylar hukmronligining o'rnatilishi Yevropa bilan munosabatlarda yutuq bo'ldi, diplomatik va tijoriy aloqlar misli ko'rilmagan darajaga chiqdi [4:9]. Shialikni davlat dini deb e'lon qilinishiga qaramasdan, mamlakat Ichida va Yevropa bilan munosabatlarida boshqa dinlarga nisbatan tolerant bo'lingangan. Safaviy hukmdorlari Eronning raqib imperiyalar bilan munosabatlarida an'anaviy kuchlar tizimi muvozanatini saqlashga intilishgan. Ularning Usmonlilar bilan tuzgan shartnomalari siyosiy masalalarga qaratilgan bo'lsa, ularning Yevropa mamlakatlari bilan tuzgan shartnoma va kelishuvlari asosan savdo-sotiqqa qaratilgan edi [1:225]. 1507-yilda Hurmuz oroli yaqinida Safaviy amaldorlari bilan birinchi marta uchrashgunga qadar, portugallarning Fors dunyosi haqidagi bilimlari va ma'lumotlari juda ham kam bo'lgan [3:34]. Shu yili orol portugallar tomonidan zabt etilgach, Shoh bilan aloqalar o'rnatiladi va 1514-yilgacha Fors tuprog'ida to'g'ridan-to'g'ri aloqa bo'lmagan bo'lsa-da, 1510-yildan buyon ikki tomon

Hindistonda diplomatik almashinuvlar olib borgan va hamkorlik loyihalarini ishlab chiqishgan. Venetsiya va Rim papasi 1504-yildan buyon Shoh Ismoil bilan ittifoq tuzishga harakat qilayotgan bo'lsa ham, ularning maqsadi Portugaliya manfaatlariga zid edi. Chunki, Venetsiya bilan ziravorlar savdosi tufayli raqobat vujudga kelgan, XV asr o'rtalariga kelib esa bu raqobatga Mirs mamluklari ham qo'shilgan edi. Shoh Ismoilning Mirs hisobiga kengayish niyati borligini bilgan portugallar Shohni ishonchli ittifoqdosh sifatida ko'ra boshladilar. Biroq ularni Safaviylarning Hindistonga bo'lgan qiziqishlari havotirga solgan. 1511-yildagi muvaffaqiyatsiz elchilikdan so'ng, Portugaliya 1515-yilda Misr mamluklariga qarshi shartnoma tuzish uchun ikkinchi marta elchilar yuboradi [5:750], biroq Shohning Chaldirandagi mag'lubiyati sababli yana muvaffaqiyatsiz chiqadi. 1517-yilda Misr Usmonlilar tarafidan bosib olinganidan so'ng Eron Portugaliya oldida o'z jozibasini yo'qotdi. Bu orada Shoh Ismoil I vafot etdgach ittifoqchilik aloqalari turg'unlik davri boshlanadi. Biroq keying davrda, ya'ni, 1549-yillarga kelib portugallarning Usmonlilar bilan diplomatik aloqlar o'rnatishga bo'lgan barcha urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchragach, ular o'zining fors ittifoqchisi bilan aloqalarni yangilashga qaror qildi. Bu safargi elchilikdan asosiy maqsad Usmonlilarga hujum qilish uchun Shoh Tahmasp I ning yordamini olish va shu tariqa Sulton Sulaymon II hujumining bir qismini boshqa tomonga yo'naltirish edi [5:761]. Ammo Hurmuzdagi Eron vakillari bilan bo'lgan yomon munosabat va shoh Tahmaspning ichki ishlar bilan bandligi sabab, bu safar ham yevropaliklar o'z rejalariga erisha olmadilar. Lekin shu davrgacha bo'lgan munosabatlarda safaviylarning erishgan yutug'i Shoh Ismoil I davridan boshlangan harbiy yordam bo'lib, Shoh Taxmasp qo'shinida portugaliyalik harbiylar va o'qchilar bor edi.

Safaviy diplomatiyasi 1580-yillardagi Shoh Muhammad davrida faollashdi, u dastlab Moskvaga Sulton Murod III ga qarshi ittifoqchi topish uchun elchilik missiyasini jo'natgan bo'lsa [7:443], Papadan Hurmuz orqali Forsga qurol-yarog'. mutaxassislar va pul yetkazib berish taklifini oldi. Lekin Yevropada vaziyatning o'zgarishi, shuningdek Shoh hokimiyatining mamlakat ichida zaifligi 1588-yilga kelib Shoh Muhammadning o'g'li Abbas I foydasiga taxtdan voz kechishiga olib keldi [8:23].

XVII asr boshlarida Fors va Portugaliya/Ispaniya o'rtasidagi diplomatik almashinuvning misli ko'rilmagan darajasiga qaramay, Portugal/Ispan diplomatiyasi kelib chiqishiga ko'ra turli kanallardan foydalangani uchun (Madrid, Lissabon yoki Goa), maqsadlari ham o'z manfaatlariga qarab o'zgarib turdi va ba'zilar antagonistik bo'lib, Shoh bilan olib borilgan muzokaralarning hamjihatligiga putur etkazdi. Shoh Abbas ham bu orada o'zining an'anaviy dushmanlari: usmonlilar va o'zbeklar bilan kelishib turishga majbur bo'ldi [11:256]. 1590-yillarda Portugaliya uni Usmonlilarga qarshi ligaga jalb qilmoqchi bo'lganida, Abbas I ni harakatsiz qoldirganimning sababi shu edi. Shoh Abbas I hukmronligi davrida Yevropada Fors diplomatiyasi juda faol bo'lib,

uning beshta elchixonasi Portugaliya/Ispaniyaga borgan [9:406]. Bu elchiliklarda o'z taklifini yanada jozibador qilish uchun Shoh Abbos I Fors ipaklarini Portugaliya kemalarida Keyp yo'li orqali jo'natishni taklif qildi. Fors ipak savdo yo'lini qayta yo'naltirish orqali Abbos I Usmonlilarga iqtisodiy zarar etkazishni rejalashtirgan, shu bilan birga u bu savdodan uning islohotlarini, ayniqsa doimiy armiyasini moliyalashtiradigan ko'proq daromad olishga umid qilgan [4:56]. Shoh Abbos I (1587-1629-yillar) diplomatik munosabatlarda yangi davrni ochdi, uning davrida nasroniy missionerlariga monastirlar qurish va maktablar ochishga ruxsat berdi. Iqtisodiy manfaatlarni o'ylab, Bandi Abbos portini ochib chet ellik savdogarlarga savdo faktoriyalarini yo'lga qo'yishni taklif qildi [4:11]. 1593-yilda Rim papasi Klement VIII Eronga missiya yuborib, Shohni turklarga qarshi kurashish uchun qurol olishga chaqirdi. 1602-yilda yana bir Papa elchiligi harbiy yordam vadasi bilan Eronga yetib keldi. Shoh Abbosning o'zi 1603-1604-yillarda Yevropaga yetti marta elchi yubordi [4:13]. Bu elchiliklardagi asosiy reja harbiy artilleriya to'plarini olish va qisman savdo faoliyatini kengaytirish edi. Shoh portugallar ta'sirini kamaytirish va Hurmuzni qaytarib olish uchun harbiy yordam olishi kerak edi, shuning uchun 1617-yilda inglizlarga Forsda savdo do'konlari ochish va ipak bilan savdoda imtiyozlar berdi va ulaning yordami bilan portugallarni 1622-yilda Hurmuzdan haydab chiqardi. Endi inglizlarning mamlakat savdosida monopoliya o'rnatishiga qarshi inglizlarga berilgan huquqlar arman va golland savdogarlariga ham berilib, ularning raqobatidan unumli foydalanidi [11:148]. Abbos I davrida tashqi aloqalarda keskin o'shish kuzatildi va mamlakat tashqarisidagi raqobatlaridan unumli foydalangan shoh davlat uchun ko'plab foydali kelishuvlarni amalga oshirdi. Biroq uning yetaklay boshladi. Shuningdek, Abbos I vafotidan so'ng kuzatilgan qiziq faktorlardan biri tashqi aloqalardan chekinish va betarflik pozitsiyasidir. Albatta, bunga asosiy sabab 1639-yilda Zahabdag i Usmonlilardan qaqshatqich mag'lubiyat [11:178] va bu yerda imzolangan shartnomadir. Unga ko'ra safaviylar Usmonlilar bilan tinchlikda yashash va ularning Yevropa bilan aloqalarida betarflik va aralashmaslik, turk manfaatlariga qarshi harakat qilmaslik shartlarini qabul qildilar [2:421]. Shundan so'ng Eron diplomatiyasida passivlik va Yevropa bilan aloqalarda betaraflik strategiyasini qo'llash asosiy mezonga aylandi.

XULOSA

Shoh Ismoil davridan boshlangan Yevrop bilan aloqalar har bir shoh davrida alohida ma'no kasb etganiga qaramasdan muqim niyatlar o'zgarishsiz qoldi. Bu yerdagi asosiy maqsad harbiy yordam olish, qo'shinni zamonaviy qurollar ta'minlash bo'lsa turli hukmdorlar davrida turli boshqa elementlar ham qo'shib bordi, jumladan Shoh Ismoil o'zini turklarga qarshi janubiy va janubiy-sharqiy Yevropa uchun alternativ ittifoqchi sifatida ko'rsatishni boshlagan bo'lsa, shoh Muhammad Moskva bilan Kavkazda sherik bo'lishga harakat qildi, Tahmaspning o'zbeklar va turklarga qarshi yurishlar Eronga bo'lgan umidlari olovlantirgan bo'lsa, Abbos savdo

imkoniyatlarini ko'rsatib berdi. Keyingi hukmdorlar esa harbiy-siyosiy ittifoq-sherikchilik kelishuvlaridan chekinib betaraflik pozitsiyasini asosiy me'zonga aylantirishdi. Bu aloqalardan safaviylar sulolasining erishgan asosiy yutuqlari qo'shinga zamonaviy qurollarning kiritilishi, tashqi ziddiyatlardan, jumladan Usmonlilar Turkiyasi va Yevropa davlatlari o'rtasidagi raqobatdan mamlakat musaqiligi va siyosiy o'sishi uchun foydalanishgani, shuningdek mamlakat ichidagi savdo jarayonlarini o'stirish, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo'ldi. Bu jabhadagi, ya'ni Shoh Ismoil davridan tortib to Zahab shartnomasigacha bo'lgan davrda Yevropa bilan Usmonlilar imperiyasiga qarshi birlik va ittifoqchilik strategiyalarining hech biri muvaffaqiyatli chiqmadi. Bu yerda bir qator faktorlar bunga sabab bo'ldi, jumladan, Eron va Yevropa o'rtasidagi uzoq masofa, Yevropa mamlakatlari ichidagi kelishmovchiliklar, ularning turklar bilan alohida alohida shartnomalari [2:438], Safaviylar davlatining o'zining ichida ham bo'lgan boshboshdoqlik shartnomalarning vaqtida bajarilmasligi va o'zara ishonchsizlikning mavjud bo'lishi. Shular sabab Safaviylar va G'arb mamlakatlari Usmonlilarga qarshi hech qachon umumiy kurashga chiqa olmadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anti-Ottoman politics and transit rights : The seventeenth-century trade in silk between Safavid Iran and Muscovy. sem-link Rudi Matthee. Cahiers du Monde Russe Année/1994/35-4 /pp.739-761
2. Diplomacy as a foreign policy instrument and the Safavid civilizational process. Mohammad Ali Chalongar, Zahra Sadat Keshovar. Politics Quarterly, Journal of the Faculty of Law and Political Science 2021, 51(2): 409-434, DOI: 10.22059/JPQ.2021.202009.1007657
3. Foreign Policy of the Safavid Empire During Shah Abbas I. Life Sci J 2013;10 (8s):405-407] (ISSN: 1097-8135). <http://www.lifesciencesite.com>.
4. Giorgio Rota, "Rudi Matthee. The Safavids under Western Eyes: Seventeenth-Century European Travelers to Iran", Abstracta Iranica [Online], Volume 32-33 | 2013, document 247, Online since 01 July 2016, connection on 27 September 2020. URL: <http://journals.openedition.org/abstractairanica/40670>.
5. Iran and the world in the Safavid age. Willem Floor and Edmund Hersig. 2005. I. B. Tauris; Reprint edition. ISBN 978 1780769905.
6. Iran's relations with Europe in the Safavid period. Diplomats, missionaries, merchants and travel. Rudi Matthee. . Life Sci J 2012;09(8s):410-418] (ISSN: 1097-8135). <http://www.lifesciencesite.com>.
7. PORTUGAL i. RELATIONS WITH PERSIA IN THE EARLY MODERN AGE (1500-1750) <https://iranicaonline.org/articles/portugal-i>

8. Russian-Iranian Relations in the Safavid and Qajar Era: A Historical Study. International Journal of Innovation, Creativity and Change. www.ijicc.net Volume 8, Issue 10, 2019
9. Safavid Iran. Rebirth of a Persian Empire. Andrew J. Newman. 2009. I. B. Tauris & Co Ltd. 6 Salem Road, London W2 4BU. 175 Fifth Avenue, New York NY 10010. www.ibtauris.com.
10. Safavids in Venetian and European Sources / Ahmad Guliyev — 1st ed. — Venice: Edizioni Ca' Foscari, 2022. — x + 116 p.; 23 cm. — (Hilâl; 9). — ISBN 978-88-6969-593-3.
11. The practice of politics in Safavid Iran. Power, religion and rhetoric. Colin P. Mitchell. 2009. I. B. Tauris & Co Ltd. 6 Salem Road, London W2 4BU. 175 Fifth Avenue, New York NY 10010. www.ibtauris.com. ISBN 978 1 84511 890 7